O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 19 - yanvar 32-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PQ-7-sonli qarori to‘g‘risida

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan imtiyozli resurslar, mexanizm va yengilliklardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali aholi bandligini ta’minlash, iqtisodiyot tarmoqlarida rasmiy band bo‘lgan fuqarolarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish yuzasidan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvar kungi PQ-7-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:**

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashini rag‘batlantirish maqsadida ijtimoiy soliq to‘layotgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun “Biznesga bir qadam” bank kartalari orqali 5 million so‘mgacha bir yil muddatgacha mikroqarzlar taqdim etish, kamida 6 oy faoliyat yuritgan va hisobvaraqlarida (bank kartalarida) pul aylanmalarini amalga oshirgan kichik tadbirkorlik subyektlariga faoliyatini kengaytirish uchun mikrokreditlar ajratish joriy etilganligi, bu maqsadlarni moliyalashtirish uchun 2024-yilda tijorat banklari tomonidan **1 trillion** so‘m, shu jumladan “O‘zmilliybank” AJ tomonidan **100 milliard** so‘m mablag‘ ajratilishi;

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB “Mening biznesim” elektron platformasini joriy etilishi bilan mehnat stajiga ega bo‘lmagan fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish orqali bandligini ta’minlashga ko‘maklashilishi, aholiga biznesni yo‘lga qo‘yish uchun kreditlar ajratilishi, faoliyatini boshlagan tadbirkorlik subyektlariga mahsulotini sotish va xizmat ko‘rsatish uchun bozorlar topishga ko‘maklashishi;

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan **100 million** so‘mgacha garovsiz ajratiladigan kreditlarning **50 foizini** ularning bank kartasiga o‘tkazib berishga ruxsat berilganligi;

2024-yil davomida mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan yaratilgan har bir yangi ish o‘rni uchun oylik ish haqqi bo‘yicha to‘langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining **50 foizi** respublika byudjetidan ish beruvchiga (har bir ishchi uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobaridan oshmagan miqdorda) qaytarib berilishi yo‘lga qo‘yilishi hamda ularga ijtimoiy soliq stavkasi **50 foizga** kamaytirilgan holda qo‘llanilishi joriy etilganligi, bunda mazkur imtiyoz “Ijtimoiy yagona reestri”ga kiritilgan fuqarolar ishga qabul qilinganda hamda ushbu fuqarolarga har bir oy uchun ish haqi miqdori mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda hisoblanganda qo‘llanilishi yo‘lga qo‘yilganligi;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, mahalliy hokimliklar va tijorat banklari bilan birgalikda 2024-yilda “agregator” tizimi asosida “**100 ming eksportchi dehqon**” dasturini joriy qilish orqali 2022-2023-yillarda dehqon xo‘jaliklariga ajratilgan yer uchastkalarida mahsulot yetishtirish samaradorligini baholash asosida yuqori qiymatli eksportbop mahsulotlar yetishtirishni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashilishi, 2024-yilda eksportbop mahsulotlar yetishtirish uchun maydoni **1 gektargacha** bo‘lgan jami **15 ming** gektar yer uchastkasini elektron onlayn auksion savdolariga chiqarilishi, loyiha tashabbuskorlariga “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi doirasida **100 million** so‘mgacha garovsiz, **150 million** so‘mgacha garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan kreditlar ajratilishi, shuningdek **1,5 milliard** so‘mgacha lizing xizmatlari ko‘rsatilishi, yirik tomorqa yer egalarining suv chiqarish, kichik texnikalar xarid qilish va oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasidagi loyihalariga ajratiladigan kreditlarning **50 foiz qismini** bank kartasiga o‘tkazib berilishi, katta hajmli sovitkichli omborlarni tashkil qilish uchun

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJning **10 milliard** so‘mgacha 7 yil muddatga xizmatlar ipotekasini taqdim etilishi joriy etilganligi;

Dasturning amalga oshirilishini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida **83 trillion so‘m** va xalqaro moliya institutlarining **274,5 million AQSH dollari** miqdoridagi mablag‘lari, shu jumladan:

kichik tadbirkorlik subyektlariga kreditlar ajratish uchun-**41 trillion so‘m**;

mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish uchun -**40 trillion so‘m**;

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan kichik va o‘rta biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun-**1,5 trillion so‘m**;

aholi bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun - **462 milliard so‘m**;

tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish uchun-xalqaro moliya institutlarining **274,5 million AQSH dollari** miqdoridagi mablag‘lari yo‘naltirilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3.Farg‘ona viloyatida **328,5 mingdan** ortiq aholining doimiy, mavsumiy, va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta’minlashning **yig‘ma maqsadli ko‘rsatkichlari 1-ilovaga** muvofiq;

2024-yilda yirik va investitsiya loyihalariini ishga tushirish hisobiga yangi ish o‘rinlarini tashkil etishning maqsadli ko‘rsatkichlari **1.1–ilovaga** muvofiq;

2024-yilda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil etishning maqsadli ko‘rsatkichlari **1.2–ilovaga** muvofiq;

2024-yilda qishloq xo‘jaligi sohasida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari **1.3–ilovaga** muvofiq;

2024-yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari **1.4–ilovaga** muvofiq;

Yangi moliyaviy xizmat turlarini joriy qilish, shu jumladan mikromoliyalashni kengaytirish orqali 2024-yilda **181,0 ming** aholini biznesga jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari **2-ilovaga** muvofiq;

4. Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida investitsiya loyihalarini joylashtirish maqsadida:

a) **Viloyat hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari N.Mamajonov, Investitsiyalar, savdo va sanoat boshqarmasi (Tashtemirov), Savdo sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (A.Yuldashev):**

Barcha shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda **2024-yil 1-martga** qadar sanoat zonalarida joylashtirish uchun istiqbolli loyihalar ro‘yxatini viloyat hokimligiga tasdiqqa kiritsin.

Loyihalarni ishga tushirishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarda loyiha tashabbuskorlariga hamrohlik qilsin hamda ularning mahsulotiga bozor topishga ko‘maklashsin;

b) viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), bilan birgalikda 2024-yilda respublika byudjetida sanoat zonalarini infratuzilma bilan ta’minlash uchun ko‘zda tutilgan mablag‘larning maqsadli ravishda o‘z vaqtida to‘liq moliyalashtirilishini ta’minlasin.

5. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan **yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirish** maqsadida barcha shahar va tuman hokimliklari:

2024-yil 1-martga qadar 2018-2022-yillarda realizatsiya qilingan yer uchastkalarini xatlovdan o‘tkazsin va ishga tushirilmagan loyihalar ro‘yxatini shakllantirsin.

Savdo sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (Yuldashev), Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (Pozilov), Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi (Do‘saliyev) hamda tijorat banklari bilan birgalikda 2024-yil 1-aprelga qadar loyihalarni ishga tushirish, shu jumladan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, infratuzilma tarmoqlariga ulash, asbob-uskunalarni ishga tushirish, ruxsat berishga ko‘maklashish bo‘yicha “yo‘l xarita”larini ishlab chiqsin va viloyat hokimligiga tasdiqqa kiritsin.

6.Farg‘ona viloyatida 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

7. **Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov, N.Mamajonov, A.Tursunov, X.Isaqov,** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (Abdullayev), Investitsiyalar, savdo va sanoat boshqarmasi (Tashtemirov),

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Ro‘zaliyev), Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi (Do‘saliyev), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Saliyev), Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi (Yuldashev) va boshqa mas’ul viloyat boshqarma va tashkilotlar shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda **ikki hafta muddatda** Farg‘ona viloyatida 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha **hududiy manzilli dasturlarini** va ularni oyma-oy bajarish reja-jadvallarini tuman, shahar va sektorlar kesimida ishlab chiqib, ularning xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlarida muhokamadan o‘tkazilishini va hududiy (manzilli) dasturlar qabul qilinishini ta’minlasin.

8. **2024-yil 1-fevraldan** shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi **har oyning 15-sanasiga qadar** Dastur doirasida yaratilgan ish o‘rinlari va bandligi ta’minlangan aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni idoralararo elektron axborot almashinuvi orqali viloyat davlat soliq boshqarmasiga taqdim etadi.

Viloyat davlat soliq boshqarmasi har oyning 20-sanasiga qadar aholi bandligi va ish o‘rinlari hisobining haqqoniyligini tekshirib, natijalari bo‘yicha ma’lumotni viloyat hokimligiga kiritib boradi.

9. Savdo sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (A.Yuldashev), Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Ro‘zaliyev), viloyat investitsiyalar, savdo va sanoat boshqarmasi (B.Toshtemirov) hamda manfaatdor idoralar bilan birgalikda **bir hafta muddatda** hududlarda sayyor qabullar o‘tkazish reja-grafigini tasdiqlasin, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘tarilgan masalalarni joyida hal qilish choralarini ko‘rib borsin va murojaatlar tahlili asosida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha viloyat hokimligiga xar oyda takliflar kiritib borsin.

10. 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturi maqsadli parametrlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish yuzasidan quyidagilarga:

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Ro‘zaliyev), shahar va tuman hokimliklariga - **xizmat ko‘rsatish yo‘nalishi bo‘yicha**;

Viloyat hokimining o‘rinbosari N.Mamajonov viloyat Investitsiya savdo

va sanoat bosh boshqarmasi (Toshtemirov), xo‘jalik boshqaruv organlari, shahar va tuman hokimliklariga – **yirik va hududiy investitsiya loyihalarni amalga oshirish**;

Viloyat hokimining o‘rinbosari A.Tursunov, viloyat Qishloq xo‘jaligi bosh boshqarmasi (Qodirov), Fermer va dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (Abduraxmonov), shahar va tuman hokimliklariga – **qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi bo‘yicha**;

Viloyat hokimining o‘rinbosari X.Isaqov, viloyat Qurilish va uy-joy va kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi (Pozilov) shahar va tuman hokimliklariga – **qurilish yo‘nalishi bo‘yicha**;

Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (Abdullayev)ga – bandlik organlari tomonidan aholi bandligini ta’minlash hamda mas’ul viloyat boshqarma va tashkilotlar tomonidan 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturini o‘z vaqtida va samarali bajaralishini muvofiqlashtirish yuzasidan javobgarlik yuklansin.

11. Viloyat boshqarma va tashkilotlari hamda shahar va tuman hokimliklari 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturi ijrosi yuzasidan yo‘nalishlar bo‘yicha **har oy yakuniga ko‘ra keyingi oyning ikkinchi sanasiga qadar** tegishli ma’lumotlarni viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va Bandlik boshqarmasiga umumlashtirish uchun hamda natijasi yuzasidan viloyat hokimligiga kiritish uchun taqdim etib borsin.

12. Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi (Do‘saliyev) va tijorat banklari rahbarlari bilan birgalikda **har oy yakuniga ko‘ra keyingi oyning ikkinchi sanasiga qadar** - yangi moliyaviy xizmatlarni joriy qilish, shu jumladan mikromoliyalashni kengaytirish orqali 2024-yilda **181,0 mingta** aholini biznesga jalb qilish bo‘yicha viloyat hokimligiga axborot kiritib borsin.

13. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov
2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturining maqsadli parametrlarining bajarilishi yuzasidan tanqidiy va tahliliy ma’lumotlarni **har oy yakuniga ko‘ra keyingi oyning beshinchi sanasiga qadar** O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va Bandlik vazirligiga hamda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etib borilishini ta’minlasin.

14. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**